



## TALABALARDA EKOLOGIK MADANIYATNI RIVOJLANTIRISHDA INTERFAOL TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

**Tursinov M.P.**

*Nizomiy nomidagi TDPU tadqiqotchisi*

**Tayanch soʻzlar:** ekologik muammo, inson, ekologik madaniyat, innovatsiya, interfaol texnologiyalar, rivojlantiruvchi taʼlim.

**Ключевые слова:** экологическая проблема, человек, экологическая культура, инновации, интерактивные технологии, развивающее обучение.

**Key words:** environmental problem, person, environmental culture, innovation, interactive technologies, developmental education.

### **РЕЗЮМЕ:**

Maqolada talabalarda ekologik madaniyatni rivojlantirishda interfaol texnologiyalardan foydalanishning oʻrni haqida maʼlumotlar bayon etilgan. Shuning bilan birga ekologik madaniyatni shakllantirishda rivojlantiruvchi taʼlimning ahamiyati haqida fikrlar berilgan.

### **РЕЗЮМЕ:**

В статье описывается роль использования интерактивных технологий в развитии экологической культуры у студентов. При этом высказывались мнения о значении развивающего образования в формировании экологической культуры.

### **SUMMARY:**

The article describes the role of the use of interactive technologies in the development of environmental culture among students. At the same time, opinions were expressed about the importance of developmental education in the formation of environmental culture.

XX asrning oxiri – XXI asr boshlarida fan-texnika va iqtisodiyotning tezlik bilan taraqqiy etishi, inson omilining tabiatga taʼsirining kuchayishi tufayli biosfera ekotizimlarining buzilish, choʻllanish hamda sayyorada haroratning ortib borishi dunyomiqyosida global ekologik muammolarga sabab boʻlmoqda. Ayniqsa, Yer yuzida atmosferaning ifloslanishi, havo haroratining asta-sekinlik bilan koʻtarilib borishi, oʻrmonlarning tezlik bilan qisqarib borayotganligi, tuproq degradatsiyasi, toza ichimlik suvi tanqisligi, ozon qatlamining yemirilishi singari ekologik muammolar dolzarb ahamiyat kasb etmoqda [4. B. 5.].

Afsuski, bu jarayonlar O‘zbekistonni ham chetlab o‘tmaydi. Bu yerda mutaxassislarning baholashicha, juda murakkab, aytish mumkinki, xavfli vaziyat vujudga kelmoqda. Bunday vaziyat nimalardan iborat:

- birinchidan, yerning cheklanganligi va uning sifat tarkibi pastligi bilan bog‘liq xavf to‘xtovsiz ortib bormoqda. Ayni vaqtda yer ulkan boyluk bo‘libgina qolmay, mamlakatning kelajagini belgilab beradigan omil hamdir. Bu hol O‘zbekistonda ayniqsa yaqqol namoyon bo‘lmoqda, chunki yerning iqtisodiy va demografik vazifasi yildan-yilga kuchayib bormoqda.

Ikkinchidan, O‘zbekistonning ekologik xavsizligi nuqtai nazaridan qaraganda, suv zaxiralarining, shu jumladan yer ust iva yer osti suvlarining keskin taqchilligi hamda ifloslanganligi katta tashvish to‘g‘dirmoqda. Respublikaning daryolari, kanallari, suv omborlari va xatto yer osti suvlari ham har taraflama inson faoliyati ta’siriga uchramoqda.

Uchinchidan, Orol dengizining qurib borish xavfi g‘oyat keskin muammo, aytish mumkinki, milliy kulfat bo‘lib qoldi. Orol dengizi muammosi uzoq, o‘tmishga borib taqaladi. Lekin bu muammo so‘ngi o‘n yilliklar mobaynida xavfli darajada ortdi. Markaziy Osiyoning butun xududi bo‘ylab sug‘orish tizimlarini jadal suratda qurish ko‘plab aholi punktlariga va sanoat korxonalariga suv berish barobarida keng ko‘lamdagi fojia – Orol haloq bo‘lishining sababiga ham aylandi.

To‘rtinchidan, havo bo‘shlig‘ining ifloslanishi ham Respublikada ekologik xavfsizlikka solinayotgan tahdidir.

Bugungi kunda dunyoda va mamlakatimizda ro‘y berayotgan ekologik muammolarni bartaraf etishda insonlarning ekologik madaniyatini oshirish ularni tabiatga bo‘lgan munosabatini yaxshilash lozimdir.

Mamlakatimizda keyingi yillarda atrof-muhitni muhofaza qilish masalalariga alohida e’tibor qaratilib, aholining ekologik madaniyatini oshirish va ularda tabiatga muhabbatni shakllantirish davlat siyosatining asosiy ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylandi. «Eng muhim masala – aholining ekologik madaniyatini oshirish haqida jiddiy bosh qotirishimiz zarur. Albatta, bunday muammolarni faqat ma’muriy yo‘l bilan hal etib bo‘lmaydi, bunga yosh avlod qalbida ona tabiatga mehr-muabbat, unga daxldorlik hissini tarbiyalash orqali erishish mumkin» [2. B. 392.].

Ta’lim jarayonining texnologik yondashish bu bejizga emas, chunki pedagogik texnologiyalar ta’lim oluvchilarni yanada keng qamrovli fikrlashga, mustaqil bilim olishga, o‘qituvchi bilan hamkorlikda faol ishlashga da’vat etadi. Bu borada ta’limning innovatsion usullaridan foydalanish ham samara beradi.



OTMda pedagogikaga oid fanlarni o'qitishning maqsadi, mazmuni, vazifalaridan kelib chiqib, undagi mavjud muammolar o'rganildi. Jumladan, pedagogikaga oid fanlarni o'qitishda rivojlantiruvchi ta'limga asoslangan metodik ta'minoti, xususan, o'quv-metodik qo'llanmalar, metodik ko'rsatmalar va tavsiyalar, o'qituvchilarning axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish savodxonligi yetarli darajada emasligi, o'quv dasturida bir qator mavzular uchun belgilangan soatlarning kamligi aniqlandi.

Bunday muammolarni bartaraf etish imkoniyatlaridan biri sifatida rivojlantiruvchi ta'lim tanlab olindi.

Rivojlantiruvchi ta'lim tushunchasi va uning mohiyatini aniqlash, uni amalga oshirish yo'llarini ko'rib chiqish uning rivojlanish kategoriyalari bilan bog'liqligini ko'rsatadi. Falsafa lug'atida «rivojlanish» tushunchasi quyidagicha izohlangan: «Rivojlanish – moddiy va ideal ob'ektlarning ortga qaytmas, yo'naltirilgan, qonuniyatli o'zgarishi. Natijada, ob'ektning yangi sifatli holati yuzaga kelib, u uning tarkibi yoki tuzilishining o'zgarishi sifatida ifodalanadi».

Rivojlantiruvchi ta'limda tafakkurning asosiy ko'rsatkichlari onglilik va ixtiyoriylik hisoblanib, asosiy vazifasi aqliy xatti-harakatlar refleksiyasini shakllantirishdan iborat. Talabalarga pedagogikaga oid fanlarni o'qitishda ilmiy-falsafiy fikrlashni o'rgatish, ekologik tafakkurni shakllantirish va rivojlantirish ularning fanning jamiyatdagi o'rni hamda kasbiy faoliyatdagi rolini tushunib yetishlariga erishish imkonini beradi. Ekologik madaniyatini rivojlantirish maqsadga yo'naltirilgan o'quv faoliyatining idrok, xotira, nutq hamda ekologik tasavvur bilan o'zaro uzviy ta'sirlashuvi jarayonida bilimlarni to'plash va axborotlarni qayta ishlash (tahlil, sintez, abstraksiya, umumlashtirish, amaliyotda qo'llash) asosida amalga oshiriladi [3].

Rivojlantiruvchi ta'lim texnologiyasining yetakchi tamoyillari (inkorporatsiya, moslanuvchanlik, uyg'unlik, yaratuvchanlik, tabiiylikka asoslanish) integratsiyasini ta'minlash talabalarning fikrlash faolligini baholash mezonlari (reproduktiv, produktiv, kreativ)ni ishlab chiqish imkonini beradi (1-jadval).

### 1-jadval

#### Talabalarning fikrlash faolligini baholash mezonlari

Talabalarning ekologik fikrlash faolligi darajasi	Pedagogikaga oid fanlarni o'qitish	Rivojlantiruvchi ta'lim texnologiyasining yetakchi tamoyillari
reproduktiv	Ekologiyaga oid axborotlar bilan tanishish	ikorporatsiya



produktiv	Ekologik tilni amalga oshirish	moslashuvchanlik
kreativ	Ekologik masalalarni yechishga ijodiy yondashuv	uyg'unlik
		yaratuvchanlik
		Tabiiylikka asoslanish

Tadqiqotimiz davomida asosiy e'tibor talabalarda mantiqiy, ekologik madaniyat, tafakkur va shaxsiy qobiliyatlarni rivojlantirishga qaratilgan, chunki talaba shaxsining har tomonlama ekologik rivojlanishini ta'minlovchi asosiy omil uning mustaqilligi, ya'ni yuqori darajada mustaqil fikrlay olishida namoyon bo'ladi. Agar ta'lim jarayoni talabani mustaqil fikr yurita olishga o'rgatsa, rivojlantirishga asoslangan bunday ta'limni o'quv-bilish jarayoni deb qabul qilish mumkin.

#### Adabiyotlar:

1. Mirziyoev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. –Toshkent: «O'zbekiston» nashriyoti, 2021. –B. 392.
2. Isxakov B.B. Farg'ona vodiysi o'zbeklarining an'anaviy ekologik madaniyati (tarixiy-etnologik tadqiqot). Tarix fan.bo'y.fals.dokt. (PhD) diss. Avtorferati. –Farg'ona, 2023. –B. 5.
3. Ishmuhamedov R., Yuldashev M. Ta'lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar. –Toshkent: Nihol, 2013. –B. 55.